

DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH, MEZONLAR VA INDIKATORLAR

Abdullayev Temur

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat boshqaruvi akademiyasi

ORCID: 0009-0007-6543-0131

Temurabdullaev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda davlat xizmatida faoliyat yuritayotgan har bir rahbar va xodim faoliyatining samarali bo'lismiga alohida e'tibor qaratilib, davlat xizmatchisi ishini ana shu tamoyillar asosida tashkil etishi zarurligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: samara, samaradorlik, boshqaruvi faoliyati, davlat boshqaruvi, baholash mezonlari.

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ, КРИТЕРИИ И ИНДИКАТОРЫ

Абдуллаев Темур

Академия государственного управления при

Президенте Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье особое внимание уделяется эффективности работы каждого руководителя и работника, работающего на государственной службе в Узбекистане, а также подчеркивается необходимость организации работы государственного служащего на основе этих принципов.

Ключевые слова: эффект, эффективность, управленческая деятельность, государственное управление, критерии оценки.

ASSESSMENT OF THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC ADMINISTRATION, CRITERIA AND INDICATORS

Temur Abdullayev

Academy of Public Administration under the

President of the Republic of Uzbekistan

Annotation. This article pays special attention to the performance of each manager and employee working in the civil service in Uzbekistan, and also emphasizes the need to organize the work of a civil servant based on these principles.

Keywords: effect, efficiency, management activities, public administration, evaluation criteria.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-tonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi (Указ, 2017) 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-tonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-tonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 va 2018-yillardagi Oliy Majlisga Murojaatnomalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi, «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi va «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi Qonunlari hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Maqola mavzusining dolzarbligi davlat tashkilotlarining uzlusiz ishlashini ta'minlash uchun salbiy omillar ta'sirini bartaraf etish yoki kamaytirishga qaratilgan amaliy faoliyatning tarkibiy qismlari majmuyi bo'lgan boshqaruv mexanizmini samarali shakllantirish muhimligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqotning maqsadi – davlat boshqaruvi samaradorligini har tomonlama baholash.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi:

- davlat boshqaruvida amalda tatbiq etiladigan maqsadlar, jamoatchilik talablari bilan xolisona belgilanadigan maqsadlar;
- davlat boshqaruvini obyektivlashtirish orqali olingan natijalar bilan boshqaruv jarayonlarida amalga oshiriladigan maqsadlar;
- jamoat ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olgan holda boshqaruvning obyektiv natijalari;
- boshqaruv natijasida olingan obyektiv natijalar bilan davlat boshqaruviga sarflangan ijtimoiy xarajatlar;
- boshqaruv potensialiga xos bo'lgan imkoniyatlar, ulardan amalda foydalanish darajasi.

Adabiyotlar sharhi.

Konsepsiyaning strategik tamoyillari O'zbekistonni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qator islohotlar tashabbuslarida, xususan, "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da o'z ifodasini topgan (Указ, 2017), uning doirasida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishga qaratilgan ustuvor maqsadlar uchun Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini ishlab chiqildi. Shundan so'ng "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi"da belgilab berilgan yangi islohotlar tashabbuslari bilan davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha yangi vazifalar belgilab berildi: ixcham, professional,adolatli va yuqori samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini qisqartirish bo'yicha boshqaruv apparati va ish jarayonlarini optimallashtirish (Указ, 2022). Islohotlarning yaxlitligi va uzlusizligini ta'minlash hamda Taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan, o'z dolzarbligini yo'qotmagan, barcha maqsadlarga erishish maqsadida beshta asosiy ustuvor yo'nalishga strategik jihatdan guruhlangan, 100 ta asosiy maqsadni o'zida mujassam etgan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi tasdiqlandi (Указ, 2023).

Davlat boshqaruvi – odamlarning ijtimoiy hayotini tartibga solish, saqlash yoki o'zgartirish uchun davlatning nufuzli, tashkiliy va tartibga soluvchi ta'siri (Мухаев, 2017).

Samaradorlik har doim ma'lum nisbatdir (natijaning maqsadlarga yoki natijaga erishish xarajatlariga), ya'ni nisbiy qiymat, bu toifa boshqaruv xarakteriga ega bo'lib, birinchi navbatda, maqsadga erishish darajasini aks ettiradi (Мазур, Шапиров и др. 2013).

Hozirgi vaqtida ilmiy adabiyotlarda "davlat boshqaruvi samaradorligi" toifasining ta'rifi shakllantirilmagan, shu munosabat bilan muallif ushbu toifaning o'ziga xos ta'rifini taklif qildi.

Davlat boshqaruvi samaradorligi – davlat boshqaruvi tizimi tomonidan erishilgan natijalarning belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiqligi darajasini hisobga olgan holda, davlat boshqaruvi tizimi tomonidan muayyan funksiyalarini bajarishning mumkin bo'lgan, shuningdek, haqiqatda olingen natijalarining har tomonlama rivojlanishdagi tavsifi.

Samaradorlikni uch tomondan ko'rish mumkin:

- natijada samaradorlik – xarajatlar, ya'ni daromad va xarajatlar, xarajatlar va foyda o'rtaidagi bog'liqlik;
- samaradorlik haqiqiy mahsulotlarning standartlarga (normalarga) nisbati sifatida;
- ko'zlangan maqsadga erishishda muvaffaqiyat sifatida samaradorlik (FANTOVÁ ŠUMPÍKOVÁ, 2016).

Melkov (2018) davlat boshqaruvi sifatini baholash parametrlari va mezonlarini tanlash muammosi haqida gapiradi, u tegishli me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan parametrlar va mintaqaviy hokimiyat qarorlarining samaradorligi har doim ham bir-biri bilan statistik jihatdan bog'liq emasligini ta'kidlaydi (Budget kodeksi va boshqa hujjatlar asosida qat'iy belgilangan budget siyosati bundan mustasno).

Davlat organlari faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha Kapoguzov (2017) va Suleymenova (2021); aholiga hayotning turli sohalarida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va hokimiyat organlari faoliyatidan qoniqishini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning obyekтивligi borasida Fateyeva (2014); ijro hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini baholashni takomillashtirish bo'yicha Apkaniyeva (2018); samaradorlikni mezonlar asosida baholash Dobrolyubova, Yujakov, Aleksandrov (2014); Davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini baholash tizimi to'g'risida Veld (1996); Davlat boshqaruvi faoliyatining samaradorligi omillari Anvarova (2015) kabilarning tadqiqotlarida bayon etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada jahon boshqaruvi ko'rsatkichlari (World Governance Indicators, WGI) bo'yicha "javobgarlik", "siyosiy barqarorlik va zo'ravonlikning yo'qligi", "hukumat samaradorligi", "tartibga solish sifati", "qonun ustuvorligi" va "korrupsiyani nazorat qilish" indekslaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Samaradorlik nuqtayi nazaridan davlat hokimiyati organlari faoliyatining ijtimoiy yaxlitlik va tizim sifatida qaraladigan har qanday jihatni (tomoni) yoki xususiyatiga baho berish mumkin. Faoliyatning ajralmas va tizimli tavsifi sifatida samaradorlik nafaqat ko'rsatkich, balki tashkil etilishi va boshqarilishi kerak bo'lgan jarayondir. Samaradorlikni baholash davlat organlari, tarkibiy bo'linmalari va davlat xizmatchilari faoliyatini baholashning uzlusiz, umumiy jarayoni bo'lishi kerak, uning mazmuni: samaradorlik ko'rsatkichlari tizimini tanlash; samaradorlik standartlarini ishlab chiqish (standartlar va protseduralar); samaradorlikni o'lchash; haqiqiy ishslash holatini ushbu standartlar talablari bilan taqqoslash.

Har bir tashkilot o'z oldiga ma'lum maqsadlar qo'yadi. Yakuniy natijalarini baholash jarayonida ma'lum nomuvofiqliklar aniqlanishi mumkin. Tekshiruv natijalariga ko'ra boshqaruva jarayonini to'g'rilash yoki rejallarga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin.

Menejmentning asosiy maqsadi tashkilot faoliyatini doimiy ravishda yaxshilashdir. Boshqaruvning iqtisodiy samaradorligi alohida ahamiyatga ega. Samaradorlik mezonlari umumiy va xususiy bo'lishi mumkin. Birinchi holda, ishslash natijalarining global jihatni ko'rib chiqiladi. Resurslarni minimal sarflash bilan maksimal natijaga erishish muhim. Boshqaruva samaradorligining qisman ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish jarayonida ishtirot etuvchi ishchilarining mehnat xarajatlari darajasi;
- moddiy resurslarni sarflashning oqilonaligi;
- moliyaviy resurslarning minimal qiymati;

- asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish va amortizatsiyani tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- ishlab chiqarish xarajati (minimalda saqlanishi kerak);
- ishlab chiqarish rentabelligi ko'rsatkichi;
- ishlab chiqarish sexlarining texnik jihozlanishi (texnik taraqqiyotning zamonaviy yutuqlariga muvofiqligi);
- mehnat sharoitlari va tashkiliy tuzilma bilan belgilanadigan ishchilarning mehnat intensivligi;
- xarajat stavkasiga muvofiqligi va barchasiga to'liq mos kelishi, shartnomalar majburiyatlar;
- xodimlar soni va tarkibining barqarorligi;
- bir xil xarajatlar darajasida ekologik qoidalarga rioya qilish.

Tashkilotni boshqarish samaradorligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

- samaradorlik rahbariyat tomonidan qo'yilgan maqsadlarga erishish darajasida namoyon bo'ladi;
- tashkilotning barcha tuzilmalari va bo'linmalarining ehtiyojlarini to'liq qondiradigan moddiy va moliyaviy resurslarni tejamkorlik bilan sarflash qobiliyati;
- olingan iqtisodiy natijalarning ishlab chiqarish jarayonida sarflangan xarajatlarga optimal nisbatiga erishish;
- to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita omillarning yakuniy natijaga ta'sir qilish darjasasi (Атаманчук, 2004).

Boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari muayyan faoliyat turlarini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini baholash imkonini beruvchi aniq ko'rsatkichlardir. Zamonaviy iqtisodiy fan ularni ikki guruhga ajratadi:

1. Xususiy (mahalliy) mezonlar:

- tovar yoki xizmatlarni to'g'ridan to'g'ri ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi ishchilarning mehnat xarajatlari;
- moddiy resurslarning boshqaruv va boshqa maqsadlar uchun sarflanishi;
- moliyaviy resurslarning narxi;
- asosiy vositalardan foydalanishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar (maqsad, amortizatsiya, samaradorlik va shu kabilar);
- aylanma tezligi;
- qoplanish muddati (kamaytirish yoki oshirish).

2. Sifat mezonlari:

- sifat ko'rsatkichlarining eng yuqori toifasiga kiruvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish;
- tashkilotning ekologik javobgarligi, shuningdek, zamonaviy energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish;
- mahsulotlarning jamiyatning dolzarb ehtiyojlariga muvofiqligi;
- xodimlarning mehnat sharoitlarini, shuningdek, ularning ijtimoiy darajasini doimiy ravishda yaxshilash;
- resurslarni tejash.

Ta'kidlash joizki, menejment samaradorligini baholashning barcha mezonlari ishlab chiqarishni (yoki taqdim etiladigan xizmatlar soni) maksimallashtirish bilan birga bo'lishi kerak. Foya darjasasi ham oshishi kerak.

Boshqaruv faoliyati yoki qaror qabul qilish natijasida olingan iqtisodiy natijalarni baholash uchun tegishli usullardan foydalilanadi. Shunday qilib, boshqaruv samaradorligining mezonlari va ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- boshqaruv samaradorligining umumiy ko'rsatkichi (hisobot davri foydasining boshqaruvga tegishli xarajatlarga nisbati);

- boshqaruv xodimlari nisbati (katta menejerlar soni va umumiy sonining nisbati, korxonada ishlaydigan ishchilar);
- boshqaruv xarajatlari nisbati (tashkilotning umumiy xarajatlarining boshqaruv xarajatlariga nisbati);
- boshqaruv xarajatlarining ishlab chiqarish hajmiga nisbati (fizik yoki miqdoriy jihatdan);
- boshqarishni takomillashtirish samaradorligi (yil davomidagi iqtisodiy samara boshqaruv faoliyatiga sarflangan mablag'lar miqdoriga bo'linadi);
- yillik iqtisodiy samara (amalga oshirilgan boshqaruv chora-tadbirlari tufayli jami jamg'armalar va sanoat omiliga ko'paytirilgan xarajatlar o'rtasidagi farq).

Boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari quyidagi yondashuvlarga muvofiq qo'llanilishi mumkin:

- dastlab qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish darajasini aniqlash uchun ularni aniqlashga yo'naltirish;
- boshqaruv apparati samaradorligini, shuningdek, rahbarlarning axborot va boshqa resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini baholash;
- yakuniy natijadan qoniqishni aniqlash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar yoki taqdim etilgan xizmatlarni baholash;
- tashkilot faoliyatidagi zaif va kuchli tomonlarni aniqlash uchun professional ekspertlarni jalg qilish;
- menejerlar yoki boshqaruv tizimlarining turli nuqtayi nazarlarini qiyosiy tahlil qilish;
- samaradorlik darajasini aniqlash uchun boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonidagi barcha tomonlar va ishtirokchilarni jalg qilish.

Baholash faoliyati quyidagi turlardan biriga mos kelishi mumkin:

1. Formativ:

- kerakli va haqiqiy holat o'rtasidagi nomuvofiqlikni aniqlash;
- kuchli va zaif tomonlarni aniqlash uchun ishlab chiqarish jarayonini baholash;
- maqsadlarga erishish darajasini baholash.

2. Jamlash:

- irratsional yo'nalishlarni bartaraf etish maqsadida real iqtisodiy foyda keltiradigan mahsulot va xizmatlar turlarini aniqlash;
- tashkilot faoliyati natijasida xodimlar va mijozlar farovonligidagi o'zgarishlarni o'rganish;
- xarajatlarning amalda erishilgan iqtisodiy natjalarga nisbatini baholash.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligining xususiyatlari ko'p qirrali bo'lib, baholash subyekti tomonidan shakllantirilgan maqsadlarga bog'liq. Shu bilan birga, samaradorlikni baholash uchun u yoki bu texnologiyadan foydalanganda, quyidagilarni aniq ajratib ko'rsatish kerak:

- 1) baholash predmeti (uning pozitsiyasi, maqsadlari va qadriyatları);
- 2) baholash obyektivi (bu butun boshqaruv tizimi yoki uning alohida elementi bo'lishi mumkin, masalan, faoliyat doirasi – jarayon, natija yoki oqibatlar; tarkibiy va institutsional jihat, xodimlar);
- 3) samaradorlik vositalari (samaradorlikni baholashning modellari, jihatlari, turlari va texnologiyalari).

Samaradorlik mezoni boshqaruv faoliyatining namoyon bo'lishining belgilari, qirralari, tomonlari bo'lib, ularni tahlil qilish orqali boshqaruv sifatini, uning jamiyat ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiqligini aniqlash mumkin.

Samaradorlik ko'rsatkichi – solishtirish imkonini beruvchi o'ziga xos ko'rsatkich: hokimiyat va xodimlarning xohlagan yoki zarur bo'lgan haqiqiy faoliyati; hukumatning turli davrlardagi faoliyati; turli organlarning bir-biriga nisbatan faoliyati.

Baholash mezonlariga qo'yiladigan talablar:

- 1) mezonlar baholash maqsadlarini amalga oshirishga olib kelishi va barcha aniqlangan muammolarni qamrab olishi kerak;

- 2) mezonlar baholashni amalda o'tkazish uchun yetarli darajada aniq bo'lishi kerak;
 3) mezonlar tegishli sabablar bilan tasdiqlanishi va/yoki nufuzli manbalaridan olinishi kerak.

Bundan tashqari hokimiyat organlari faoliyatini baholashda foydalaniladigan mezonlar bir-biriga, shuningdek, avvalgi baholashlarda qo'llanilgan mezonlarga mos kelishi kerak.

Agentlik tomonidan tajriba tariqasida tuman (shaharlar) hokimi o'rribbosarlari faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Xususan, tumanlar (shaharlar) hokimlari o'rribbosarlari faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish, ularning faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida 100 dan ortiq o'quv-seminarlar o'tkazildi.

2020-yilda 12 ta tuman (shahar)da tajriba tariqasida, 2021-yildan boshlab esa barcha tuman (shahar)larda tuman (shahar) hokimi o'rribbosarlari faoliyatini baholash tizimi joriy etildi va har chorak yakunlari bo'yicha baholandi. Agentlik tomonidan baholash tartibini takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borildi va 2022-yil boshidan yangi baholash tartibi joriy etildi.

Shuningdek, yangi tartib asosida hududlar salohiyati va vazifalarning dolzarbligidan kelib chiqib, asosiy ko'rsatkichlar salmog'ini (qiymatini) aniqlash amaliyoti joriy etildi.

2022-yil yakuni bo'yicha 1216 nafar tuman (shahar) hokimi o'rribbosarlaridan 118 nafari (9,7 %) "a'lo", 809 nafari (66,5 %) "yaxshi", 280 nafari (23 %) "qoniqarli" va 9 nafari (0,7 %) "qoniqarsiz" deb baholandi.

2021-yil 23-avgustda Vazirlar Mahkamasining "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tarmoqlari samaradorligini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi.

Mazkur qarorga muvofiq, agentlik tomonidan 6 ta yo'nalish bo'yicha tarmoqlar faoliyati 25 ta asosiy ko'rsatkich bo'yicha baholandi. Mazkur tizimning hayotga tatbiq etilishi natijasida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish borasida aholi muammolarini tezkorlik bilan hal etishda ijobiy o'zgarishlarga erishildi.

2022-yil yakuni bo'yicha sektor rahbarlari faoliyatini baholash natijalariga ko'ra, 820 ta sektor rahbarlaridan 530 tasi "yaxshi", 290 tasi "qoniqarli" natija ko'rsatdi.


Xususan, 2022-yil 8-avgustda "Davlat xizmati to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonunning 36-moddasi davlat xizmatchisi faoliyati samaradorligini baholashga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra, davlat xizmatchisini rag'batlantirish va lavozimda ko'tarilishini ta'minlash maqsadida uning faoliyati samaradorligini asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha, xolis va adolatlilik mezonlar asosida baholash tizimi joriy etilmoqda.

Mazkur Qonun normalariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida 2022-yil 28-dekabrda 3407-son bilan Agentlik tomonidan ishlab chiqilgan Davlat xizmatchilar faoliyatini asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha baholash metodikasi davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Jahon banki ekspertlari 2021-yil uchun yangilangan Jahon boshqaruvi ko'rsatkichlarini (World Governance Indicators, WGI) e'lon qildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2020-yilda yomonlashganidan so'ng, mamlakatning barcha olti komponent bo'yicha ko'rsatkichlar yaxshilangan.


WGI indeksi olti bo'limga bo'lingan: "javobgarlik", "siyosiy barqarorlik va zo'ravonlikning yo'qligi", "hukumat samaradorligi", "tartibga solish sifati", "qonun ustuvorligi" va "korrupsiyani nazorat qilish". Xulosa indeksi deyarli yo'q - faqat ushbu komponentlar bo'yicha ma'lumotlar. Jahon banki mustaqil ravishda ushbu indeks uchun mamlakatlar reytingini tayyorlamaydi.

Boshqaruv sifat ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun jami 30 ta axborot manbalaridan foydalaniladi. 2021-2022-yillardagidan farqli o'laroq, O'zbekiston ko'rsatkichlarini hisoblashda 16 ta axborot manbalaridan foydalanilgan.

1-rasm. Hukumat faoliyati samaradorligi¹

"Hukumat faoliyati samaradorligi" ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston 208 ta davlat orasida 116-o'rinni egallab, avvalgi natijani 22 pog'onaga yaxshilagan.

O'zbekistonning, boshqa davlatlar bilan solishtirganda, tutgan o'rni to'g'risida Jahon banki tomonidan ham hisob-kitob qilingan reytingda tushuncha beriladi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 44,7 %ni tashkil etadi, ya'ni 44,7 % mamlakatlarda davlat boshqaruvi samaradorligi O'zbekistonnikidan yomonroqdir. Ikki yil avval bu ko'rsatkich ancha past – 34,1 % edi.

2-rasm. Siyosiy barqarorlik va zo'ravonlik/terrorizmning yo'qligi²

Siyosiy barqarorlik va zo'ravonlikning yo'qligi bo'yicha O'zbekiston o'z natijasini 19 pog'onaga yaxshilab, 130-o'ringa ko'tarildi.

Shu bilan birga, ko'rsatkichning o'zi ikki yil oldingi (-0,43 %)ga qaraganda yaxshiroq bo'lسا da, salbiy zonada (-0,24) qoldi. Bu ko'rsatkich doimo yaxshi yoki yomon tomonga o'zgarib turadi.

Reyting ham 31,6 %dan 39,2 %ga ko'tarildi.

3-rasm. Oshkorlik va hisobdorlik³


¹ <https://www.gazeta.uz/ru/2022/10/04/wgi/>

² <https://www.gazeta.uz/ru/2022/10/04/wgi/>

³ <https://www.gazeta.uz/ru/2022/10/04/wgi/>

Tanlov erkinligi, so'z erkinligi, yig'ilishlar va ommaviy axborot vositalari erkinligini aks ettiruvchi "Oshkoraliq va hisobdorlik" ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston 12 pog'ona yuqorilab, 182-o'ringa ko'tarildi. Ko'rsatkich -1,40 ni tashkil etdi, bu 2010-yildan beri eng yaxshi natijadir.

Shu bilan birga, reyting eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib qolmoqda – 12,56 %, ya'ni atigi 12,56 % mamlakatlarda shaffoflik va hisobot berish darajasi O'zbekistondagidan ham yomonroq.




4-rasm. Tartibga solish sifati⁴

Tartibga solish sifati (hukumatning xususiy sektor rivojlanishiga yordam beradigan va rag'batlantiruvchi asosli siyosat va qoidalarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatini aks ettiradi) yaxshilandi. 2021-yil yakuniga ko'ra, mamlakat 33 pog'onaga ko'tarilib, 144-o'ringa ko'tarildi.

Ko'rsatkich salbiy zonada (-0,58 %), ammo bu 1996-yildan beri eng yaxshi natijadir. Ikki yil oldingi reyting 14,4 %ga nisbatan 31,25 %ni tashkil etdi.

"Qonun ustuvorligi" indikatori (kelishuvlar qay darajada bajarilayotgani, mulkiy huquqlar hurmat qilinishi, ichki ishlar xodimlari va sudlar ishlayotganligi haqidagi tasavvurni aks ettiradi, shuningdek, jinoyat va zo'ravonlik ehtimolini baholaydi) -1,08 dan -0,89 gacha yaxshilandi.

Bu mamlakatga 168-o'ringa ko'tarilish imkonini berdi (+13 pozitsiya). Bu o'rin 19,7 %ni tashkil etdi.




5-rasm. Qonun ustuvorligi⁵

⁴ <https://www.gazeta.uz/ru/2022/10/04/wgi/>

⁵ <https://www.gazeta.uz/ru/2022/10/04/wgi/>

Bu ko'rsatkich hukumat hokimiyatidan siyosatchilarning shaxsiy manfaati, jumladan, korrupsiyaning kichik va asosiy shakllari, shuningdek, elita va shaxsiy manfaatlар томонидан давлат томонидан босиб олиниш учун qay darajada foydalaniishi haqidagi tasavvurlarni aks ettiradi.



6-rasm. Korruptsiyani nazorat qilish⁶

Mamlakatning ushbu ko'rsatkich bo'yicha natijasi 15 pog'onaga yaxshilanib, 161-o'ringa ko'tarildi. Ko'rsatkich -1,05 dan -0,81 gacha ko'tarildi, reyting esa 23 %gacha ko'tarildi.

2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida tartibga solish yukini kamaytirish, qonun hujjatlari sonini qisqartirish, davlat organlari faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Xulosa va takliflar.

Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini samaradorligini baholash borasidagi asosiy muammolardan yana biri ularning faoliyatini baholash mezonlari va metodikasining barqaror emasligi bilan bog'liq. Baholash mezonlari va metodikasining o'zgarib turishini tabiiy hol sifatida qabul qilish mumkin. Ammo baholash mezonlarini o'zgartirish, yangilarini qo'shish, mos ravishda baholash metodikasini ishlab chiqishda, aniqlikka rioya qilish talab etiladi. Buning uchun soha mutaxassislaridan aniq hisob-kitob bilan birga sinchkovlik ham talab etiladi.

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, davlat organlari faoliyatini baholash borasida ko'plab ijobiy, shu bilan birga, tanqidiy fikrlar ham mavjud. Ammo ko'plab davlatlarga davlat organlari faoliyatini takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlarda, aynan ular faoliyatini baholashga e'tibor qaratilmoqda. Baholashda asosiy e'tibor resurslardan natijaga qaratildi.

Davlat boshqaruvi faoliyatining samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- har bir davlat organining aniq maqsadi (vazifasi), tarkibiy bo'limalar o'rtaida vazifalar, funksiyalar va javobgarlikning aniq taqsimlanganligi;
- funksiyalarning bajarish mexanizmlari mavjudligi;
- faoliyatning aniq rejalashtirilganligi;
- mehnat sharoitlarining yaratilganligi;
- malakali mutaxassislardan iborat personal bilan tizimli ishlash, samarali va adolatli rag'batlantirish (ish haqi, mukofotlar va shu kabilar);
- davlat xizmatchilarining mehnat unumдорligini baholash mezonlari mavjudligi;
- baholash natijalariga ko'ra takliflarni ishlab chiqish bilan davlat organlari faoliyatini samaradorligini pasaytiradigan muammolarni aniqlash imkoniyati mavjudligi.

⁶ <https://www.gazeta.uz/ru/2022/10/04/wgi/>

Faqat keng qamrovli baholash davlat boshqaruvi sifati haqida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Shuningdek, belgilangan strategik vazifalarni hal etishda davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatining samaradorligini baholash, samarasiz hududiy rahbarlarni almashtirish orqali rahbariyatda zarur o'zgarishlarni amalga oshirish, shuningdek, moliyaviy ko'mak ko'rsatish orqali eng yaxshi natijalarga erishgan davlat tashkilotlarini rag'batlantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

FANTOVÁ ŠUMPÍKOVÁ, M., (2016) *Hodnocení efektivnosti veřejných výdajových programů: habilitačná práca*. Brno: Masaryk university.

Shavkat Mirziyoyev (2016) *Biz jasur va oljanob xalqimiz bilan erkin va obod, demokratik O'zbekiston davlatini quramiz!* 2016-yil 15-dekabr.

Suleimenova. G. (2021) *Performance Evaluation System Of Government Agencies In The Republic Of Kazakhstan: Modern Conditions And Prospects Of Development*//<https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-effektivnosti-deyatelnosti-gosudarstvennyh-organov-v-kontekste-strategicheskogo-menedzhmenta-i-organizatsionnogo-razvitiya-v> (17.05.2021).

Veld R.J. in't. (1996) *Relations between the State and Higher Education*. The Hague, P. 36, 79; Veld R. J. in't. *The Dynamics of Educational Performance Indicators*, Ministry of Education, Culture and Science (JC&W). The Hague, 1987.

Anvarova D. (2015) *Davlat boshqaruvini baholash yoxud budjet mablag'lari qanday tejaladi*. // <https://huquqburch.uz>

Апканиева К.И. (2018) *Оценки эффективности деятельности органов государственной власти в РФ: состояние, проблемы и пути решения*. / К.И.Апканиева. Текст: непосредственный. // Молодой ученый. № 45 (231). С. 123-127. URL: <https://moluch.ru/archive/231/53607/> (дата обращения: 04.05.2021).

Атаманчук Г.В. (2004) *Теория государственного управления*. Издательство: Омега-Л.

Добролюбова Е.И., Южаков В.Н., Александров О.В. (2014) *Вопросы государственного и муниципального управления*. № 2, с. 28-47.

Капогузов Е.А., Сулейменова Г.К. (2017) *Оценка эффективности деятельности государственных органов в контексте стратегического менеджмента и организационного развития в Республике Казахстан*. // ARS ADMINISTRANDI. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-effektivnosti-deyatelnosti-gosudarstvennyh-organov-v-kontekste-strategicheskogo-menedzhmenta-i-organizatsionnogo-razvitiya-v> (дата обращения: 17.05.2021)

Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г. (2013) *Эффективный менеджмент*. – М.: Высшая школа, – 555 с.

Мельков С.А. (2018) *Государственное и муниципальное управление. Введение в специальность*. Конспект лекций. Учебное пособие. / С.А.Мельков, А.Н.Перенджиев, О.Н.Забузов. – М.: КноРус, - 294 с.

Мухаев Р.Т. (2017) *Система государственного и муниципального управления*. – М.: Юнитидана, – 36 с.

Указ (2017) Указ Президента Республики Узбекистан, от 07.02.2017 г. № У4947. <https://lex.uz/ru/docs/3107042> (Дата обращения: 01.08.2023 г.).

Указ (2022) Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60. <https://lex.uz/ru/docs/5841077> (Дата обращения: 01.08.2023 г.).

Указ (2023) Указ Президента Республики Узбекистан, от 11.09.2023 г. № УП-158. <https://lex.uz/ru/docs/6600404> (Дата обращения: 17.09.2023 г.).

Фатеева С.В. (2014) *Концептуальные основы оценки эффективности деятельности органов исполнительной власти*.